

1) Didaktik jarayon kechadigan barcha jarayonlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilashtirish qanday nomlanadi?

A) tashxis

B) baholash

C) rejalashtirish

D) bashoratlash

2) Beshinchi sinf o'quvchilarining ko'pchiligi o'quv kurslarida tayyorlanganligi uchun juda yaxshi bilimga ega. Matematika fani o'qituvchisi darsga kirishdan oldin o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari, talablarini inobatga olgan holda darsga yangi metod, yangicha axborot bilimlarini mustahkamlash uchun qo'shimcha misollar topib darsga tayyorlanadi. Ushbu jarayonda o'qituvchining darsga tayyorgarligining qanday bosqichi namoyon bo'lmoqda?

A) loyihalash

B) tashxis

C) bashoratlalsh

D) rejalashtirish

3) 7-sinf o'quvchilari kimyo fanidan juda yaxshi bilimga ega, Shu sababli o'qituvchi o'quvchilarga dars tuzulishini tarqatma materiallar va yangi qo'shimcha ma'lumotlarni tayyorlashda nihoyatda e'tiborli bo'ladi. Quyida o'qituvchining darsga tayyorgarligining qaysi bosqichi namoyon bo'lmoqda

A) Bashoratlash

B) loyihalashtirish

C) rejalashtirish

D) tashxis

4) O'qituvchi yaqinda ochiq dars tashkil qilishi kerak. U o'tadigan ochiq darsi uchun turli xil g'oya va farazlarni o'ylab qo'ydi. Bu darlardan keyingi natijalar haqida ham bosh qotirdi va ulan ichidan eng ma'qulini tanlab oldi.

Quyida o'qituvchining darsga tayyorgarligining qaysi bosqichi namoyon bo'lmoqda?

A) rejalashtirish

B) bashoratlash

C) tashxis

D) loyihalashtirish

5) Moslashtiring

1. Induksiya

2. Deduksiya

3 . Anologiya

a) xususiyydan umumiygaga qarab turish

xususiyy xulosalardan umumiy xulosalar chiqarish

b) Umumiydan xususiyy xulosalar chiqarish

c)xususiyy xulosalardan xususiyy xulosalar chiqarish

A) 1-a,2-b,3-c

B) 1-b,2-a, 3-c

C) 1-c,2-b,3-a

D) 1-a,2-c, 3-b

6) O‘qituvchi o‘quvchiga “Otamdan qolgan dalalar” romanini o‘qib bo‘lgach, voqealarni real hayot bilan bog‘lash topshirig‘ini berdi. Bu holatda o‘qituvchi qanday o‘qitish usulidan foydalangan?

A) Didaktik o‘qitish

B) Amaliy o‘qitish

C) Interfaol o‘qitish

D) Nazariy o‘qitish

Izoh: Amaliy o‘qitish — o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilimlarini real hayotda qo‘llashga yo‘naltirilgan o‘qitish shaklidir. O‘quvchining roman asosida hayotiy tahlil qilish topshirig‘i berilishi — amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Didaktik o‘qitish esa ko‘proq nazariy bilimlarni uzatishga qaratilgan bo‘ladi.

7) Ona-tili fani o'qituvchisi Dilmurod aka darsda o'quvchilar zerikib qolayotganini sezdi. U bolalarni darsga bo'lgan qiziqishlarini qayta

uyg'otish uchun turli kompyuter texnologiyalardan foydalandi. Bu orqali o'quvchilarning faolligiga erisha oldi. Bunday holatda o'qituvchi kasbiy kompetentlikning qaysi mehnat harakatini bajargan hisoblanadi?

A) Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarining maqsadlariga muvofiq o'quv rejalarini ishlab chiqish

B) O'quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib o'quv dasturini moslashtirish

C) O'z faoliyatini fanlararo kompetensiyalar predmetining korrelyatsiya va integratsiya tamoyillarini inobatga olgan holda rejalashtirish

D) O'quvchilarning bilimini baholash natijasida olingan ma'lumotlarni inobatga olgan holda rejalarini muvofiqlashtirish

Izoh: Agar o'quvchi darsga qiziqmasa unga o'quv dasturini o'quvchilar ehtiyojlariga va qiziqishlariga muvofiq rejalashtirish samarali bo'ladi

8) O‘qituvchi mustaqil fikrlab darslar uchun mustaqil qarorlar qabul qila oladi. U ijtimoiy munosabatlarda ham juda faol qatnasha oladi. Quyida o‘qituvchi faoliyatida kasb standartining qaysi sohasi namoyon bo‘lmoqda?

A) Ta’lim samaradorligini oshirish

B) O‘quv jarayonini rejalashtirish

C) Xavfsiz rivojlantiruvchi ta’lim muhitini yaratish

D) Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish

9) Moslashtiring

1. Маҳсус ёки касбий компетентлик

2. Ижтимоий компетентлик

a) (қўшимча фаолиятни ҳамкорликда ташкил этиш)

b) (касбий фаолиятни юқори даражада ташкил этиш)

A) 1-a, 2-b

B) 1-b, 2-a

10) O'qituvchi sinfida ijobiy mukoqot muhitini yarata oladi, o'quvchilari o'rtasida sog'lom psixologik muhitni shakllantiradi, Ular o'rtasida yuzaga kelgan muommolarni tinch yo'l bilan hal qiladi. Quyida o'qituvchi faoliyatida kompetentlikning qaysi turi namaoyon bo'lmoqda?

- A) Ijtimoiy
- B) Metodik
- C) Ekstremal

D) Psixologik

11) O'qituvchi o'z darslarida turli xil interaktiv metodlardan unumli foydalandi. O'quvchilarga mavzuni tushuntirishning turli xil usullarini qo'llab ko'rdi. Natijada uning darsi samarali tashkil qilindi. Quyida o'qituvchi faoliyatida kompetentlikning qaysi turi namoyon bo'lmoqda

- A) Ijtimoiy

B) Metodik

C) Ekstremal

D) Psixologik

12) O'qituvchi doimo o'z ustida ishlaydi, izlanadi. U o'z sohasida mavjud bo'lgan axborotlarni to'plab faoliyatida qo'llab keladi. Ma'lumotlarni izlaydi yi'gib bir to'plamga jamlaydi, kerak vaqtida amaliy ish faoliyatida bu ma'lumotlardan foydalanadi. Quyida o'qituvchi faoliyatida kompetentlikning qaysi turi namoyon bo'lmoqda?

A) Ijtimoiy

B) Metodik

C) Informatsion

D) Psixologik

13) O'qituvchi hamisha o'z faoliyatiga va hamkasblarining ish faoliyatiga tanqidiy yo'l bilan qaraydi. O'zining faoliyatini tahlil qilish jarayonida ijodiy izlanishlar olib boradi. Hamkasblari orasida ijodkor o'qituvchi sifatida ajralib turadi. Quyida o'qituvchi faoliyatida kompetentlikning qaysi turi namoyon bo'lmoqda?

A) Ijtimoiy

B) Kreativlik

C) Informatsion

D) Insvatsion

14) O'qituvchi doimo izlanishda bo'ladi. O'z pedagogik jarayonini takomillashtirish, ta'lim jarayoning samarali tashkil qilinishi uchun, tarbiya jarayoning samaradorligini oshirish uchun yangi g'oyalarni ishlab chiqadi.

Quyida o'qituvchi faoliyatida kompetentlikning qaysi turi namoyon bo'lmoqda

A) Kreativlik

B) Metodik

C) Interfaol

D) Inavatsion

15) O'qituvchining nutqi juda ravon va ta'sirchan. Udoimo o'quvchilar bilan samimiy muloqotni shakllantira oladi. Har bir o'quvchisini eshitib u bilan do'stono munosabatni shakllantira

oladi. Har bir harakati , o'zining nutqi orqali o'quvchilarga ijobiy ta'sir ko'rsata oladi. Quyida o'qituvchi faoliyatida kasb standartining qaysi sohasi namoyon bo'lmoqda?

A) Ijtimoiy

B) Kreativlik

C) Kommunikativ

D) Insvatsion

16) O'qituvchi o'z ustida doimiy ishlab keladi. Ijodiy faoliyatida yangiliklarni izlab topadi, o'z faoliyatida qo'llaydi, bilimini oshirish uchun tinmasdan yetakchi mutaxasislardan ta'lim oladi. Ta'limga oid bo'lgan har qanday seminarlarda faol qatnashadi. Malaka oshirish kurslarini qoldirmasdan o'tib keladi. Quyida o'qituvchi faoliyatida kompetentlikning qaysi turi namoyon bo'lmoqda

A) Kreativlik

B) Insvatsion

C) Shaxsiy

D) Kommunikativ

17) O'qituvchi o'z faoliyatida qo'llash mumkin bo'lgan har qanday axborot texnologik vositalardan o'z o'rnida foydalana oladi.

Darslarini ko'rish va eshitish vositalari orqali anchagina samarali tashkil qiladi. Quyida o'qituvchi faoliyatida kompetentlikning qaysi turi namoyon bo'lmoqda?

A) Ijtimoiy

B) Metodik

C) Informatsion

D) Texnologik

18) O'qituvchining o'quvchilar orasida tasodifan yuzaga kelib qolgan muommoga ko'zi tushib qoldi. O'qituvchi kuzatib turishi natijasida orada anglashilmovchilik yuzga kelganligi tufayli bolalar bir-birlari bilan yomon munosabatda bo'layotganini ko'rdi. Vaziyat yomonlashmasdan turib borib muommoga yechim topdi va

o'quvchilarni bir-birlaridan kechirim so'rashga undadi. Quyida o'qituvchi faoliyatida kompetentlikning qaysi turi namoyon bo'lmoqda?

A) Informatsion

B) Kommunikativ

C) Metodik

D) Ekstremal

19) «Har tomonlama barkamol rivojlangan insonning o'z xatti - harakatlari va ularning qonuniyatlarini anglashga qaratilgan nazariy faoliyat shaklidir; inson ma'naviy dunyosining o'ziga xos yashirin hislatlarini ochib beradigan o'z-o'zini bilishga va anglashga qaratilgan faoliyatdir» .Gap nima haqida bormoqda?

A) Diksiya

B) Refleksiya

C) Qobiliyat

D) Tarbiya

20) Moslashtiring.

1. Intellektual refleksiya

2. Shaxsiy refleksiya

a) Muammolarni fikrlash asosida ijobiy hal qilishni belgilaydi.

b) O'qituvchining nizoli (konfliktlar) pedagogik ziddiyatlardan janjalsiz chiqishni fikran izlanish asosida bartaraf qilishni ta'minlaydi.

A) 1-a,2-b

B) 1-b,2-a

21)jamo'a a'zolarining birgalikdagi o'zaro muntazam mehnat faoliyatlarini muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat. Nuqtalar o'rniga mos javobni belgilang

A) Kooperativ refleksiya

B) Kommunikativ refleksiya

C) Shaxsiy refleksiya

C) Intellektual refleksiya

22)muloqot jarayonida sheriklarining o‘zaro bir-birlarini tushunib munosabat qilishni ta’minlaydi. Nuqtalar o‘rniga mos javobni belgilang.

A) Kooperativ refleksiya

B) Kommunikativ refleksiya

C) Shaxsiy refleksiya

D) Intelektual refleksiya

23) O‘quvchilar darsda shovqin qilayotgan bo‘lsa, o‘qituvchi avvalo nima qilishi kerak?

A) Darhol sinfdan chiqib ketishi

B) Shovqin qilganlarni jazo bilan qo‘rqitishi

C) Tinchlikni saqlash uchun muloyim lekin qat’iy ohangda ogohlantirishi

D) Sinf rahbariga shikoyat yozishi

24) O‘quvchilar darsda shovqin qilayotgan bo‘lsa, o‘qituvchi avvalo nima qilishi kerak?

A) Darhol sinfdan chiqib ketishi

B) Shovqin qilganlarni jazo bilan qo'rqitishi

C) Tinchlikni saqlash uchun muloyim lekin qat'iy ohangda ogohlantirishi

D) Sinf rahbariga shikoyat yozishi

Izoh: O'qituvchi birinchi navbatda tinchlikni o'rnatish uchun muloyim, ammo qat'iy ohangda ogohlantirishi kerak. Bu usul bolalarda mas'uliyat hissini uyg'otadi va shovqinni yumshoq tarzda bartaraf etishga yordam beradi.

25) O'quvchi tajriba natijalarini o'rganadi, ular asosida sabab-oqibat munosabatini aniqlaydi va eng maqbul xulosani beradi. Bu qaysi darajaga mos keladi?

A) Bilish

B) Tushunish

C) Qo'llash

D) Baholash

Izoh: Baholash – bu Bloom taksonomiyasi bo'yicha eng yuqori darajalardan biri bo'lib, o'quvchi

ma'lumotlarga asoslanib tanqidiy fikrlaydi, turli yechimlarni taqqoslaydi va eng maqbul qarorni qabul qiladi.

26) Interfaol o'yinlar, harakatli o'yinlar, jamoaviy mashg'ulotlar kabi metodlar qaysi yo'nalishga mansub?

A) An'anaviy o'qitish metodlari

B) Passiv o'qitish metodlari

C) Faol o'qitish metodlari

D) Nazariy ta'lim metodlari

Izoh: Interfaol va harakatli o'yinlar o'quvchini dars jarayoniga faol jalb etish, mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu metodlar ta'lim jarayonida faollikni oshiradi va o'quvchilarni passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchiga aylantiradi. Shu sababli, ular faol o'qitish metodlari yo'nalishiga kiradi.

27) O'qituvchi har dars oxirida darsda qilgan xatolarini yozib oladi va manbalardan ko'rib,

ularni mustahkamlab boradi. U qanday yo'l tutmoqda?

A) Passiv o'quvchi bo'lish yo'lini

B) O'z-o'zini nazorat qilish yo'lini

C) Ustozga bog'lanib qolish yo'lini

D) Xatolarni e'tiborsiz qoldirish yo'lini

28) O'qituvchi loyiha ishini amalga oshirish jarayonida o'quvchilaridan biri boshqalarga nisbatan ustunlik qilayotganini va boshq o'quvchilarga bajarishga biron bir ish qoldirmayotganligini sezib qoldi . Quyida o'qituvchi qanday yo'l tutadi?

A) bu o'quvchini loyiha ishidan chetlatish

B) Unga loyih aishidan tashqari qiziqarliroq mashg'ulot bilan shug'ullanishi uchun imkon berish

C) Loyiha ishidagi rollarni barcha o'quvchilar saviyasiga mos qilib muqobillashtirish

D) Bu o'quvchiga boshqlarga ham imkon berish kerakligini tushuntirish

29) O‘qituvchi doskaga bolaning etigini yechayotganining rasmini chizdi. O‘qituvchi qanday metoddan foydalandi?

A) Illyustrativ metod

B) Amaliy metod

C) So‘zli metod

D) Muammoli metod

30) Moslashtiring.

1. O‘quv jarayonini rejalashtirish

2. Ta’lim samaradorligini oshirish

a) O‘quvchilarning ta’limiy maqsadlari va yosh xususiyatlariga mos keladigan o‘qitish usullari va yondashuvlarini tanlash O‘qitishning faol usullaridan foydalanish (frontal ta’lim ustun bo‘la olmaydi)

b) Darsning maqsadlari, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va o‘zlashtirishiga mos keladigan dars shakllari va usullarini rejalashtirish. Tegishli o‘quv, namoyish va tarqatma materiallardan foydalanishni

rejalashtirish

A) 1-a,2-b

B) 1-b 2-a

@oliymaqsad2 Anora Mahkamova guruhi uchun
Test tuzuvchi: Babasheva Dilnoza Dekanbayevna

MEHNAT VAZIFALARI TAVSIFI

(Ta'lim va tarbiya jarayonini boshqarish yo'nalishida) **O'QUV**

JARAYONINI REJALASHTIRISH

Mehnat harakatlari	<u>Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarining maqsadlariga muvofiq o'quv rejalari ishlab chiqish</u>
	<u>O'quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib o'quv dasturini moslashtirish (agar kerak bo'lsa)</u>
	<u>O'z faoliyatini fanlararo kompetensiyalar predmetining korrelyatsiya va integratsiya tamoyillarini inobatga olgan holda rejalashtirish.</u>
	<u>O'quvchilar bilimini baholash natijasida olingan ma'lumotlarni inobatga inobatga olgan holda, darsning aniq va o'lchamli maqsad va natijalarini aniqlab, dars rejasini ishlab chiqish.</u>
	<u>Darsning maqsadlari, o'quvchilarning yosh xususiyatlari va o'zlashtirishiga mos keladigan dars shakllari va usullarini rejalashtirish.</u>
	<u>Tegishli o'quv, namoyish va tarqatma materiallardan foydalanishni rejalashtirish.</u>
	<u>Dars jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalar integratsiyasini rejalashtirish.</u>
Zarur ko'nikmalar	<u>Ta'limning aniq va o'lchanadigan natijalarini, shuningdek ushbu natijalarga erishishda aniq muddatlar (yil, chorak, dars) uchun vazifalarni aniqlash va ularni rejalarda shakllantirish.</u>
	<u>O'quvchilarning bilimini baholash natijasida olingan ma'lumotlarni inobatga olgan holda rejalarni muvofiqlashtirish.</u>
	<u>Fanlararo kompetensiyalarni fanga singdirish, o'z fanini boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lash (korrelyatsiya).</u>
	<u>Zamonaviy axborot texnologiyalarini fanga singdirish.</u>
	<u>Dars vaqtini oqilona rejalashtirish, darsning maqsad, shakl va usullarni aniqlash.</u>
Zarur bilimlar	<u>O'quv reja va davlat ta'lim standartlari, shuningdek maktab ishi bilan bog'liq boshqa hujjatlar (ta'lim tizimining tuzilishi va vazifalari — maqsadlari, huquqiy asoslari, ta'lim muassasalarining tashkil etilishi va faoliyati).</u>
	<u>O'qitiladigan fan davlat ta'lim standartlari va asosiy umumta'lim dasturi, uning tarixi, shuningdek jahon madaniyati va fanidagi o'rni talablar doirasida</u>
	<u>Fanni o'qitishning turli usullari</u>
	<u>Ta'lim maqsadlariga erishish uchun har xil turdagi rejalarni tayyorlashning tuzilishi va tamoyillari</u>
	<u>Ta'lim jarayonini tashkil etishning didaktik tamoyillari</u>
	<u>Faoliyatni rejalashtirish uchun AKT</u>

@oliymaqsad2 Anora Mahkamova guruhi uchun

Test tuzuvchi: Babasheva Dilnoza Dekanbayevna

1a'lim jarayonini rejalashtirishda o'qituvchi zamonaviy o'qitish nazariyalari bilan foydalanishi va bolalarning individual qobiliyatlarini hisobga olishi kerak. O'z ishida o'qituvchi o'zining faoliyati bilan bog'liq barcha standartlar va huquqiy hujjatlarni inobatga olishi kerak.

TA'LIM SAMARADORLIGINI TA'MINLASH (ta'lim dasturini amalga oshirish)

Mehnat harakatlari	Dars maqsadlari asosida o'quvchilar uchun erishimli vazifalarni belgilash
	Dars mavzusiga mos keladigan namoyish va tarqatma materiallardan foydalanish
	Darsda vaqtdan oqilona foydalanish.
	Ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlash va ta'limiy muammolarni hal qilishda AKTdan foydalanish.
	O'quvchilar bilimni baholash natijasida olingan ma'lumotlar asosida darsni tashkil etish va ta'lim berishdagi yondashuvlarining samaradorligini tahlil qilish
	O'quvchilarning ta'limiy maqsadlari va yosh xususiyatlariga mos keladigan o'qitish usullari va yondashuvlarini tanlash
	O'qitishning faol usullaridan foydalanish (frontal ta'lim ustun bo'la olmaydi)
	Umumiy o'rta ta'limning ta'lim standartlarida belgilangan o'quvchilarning asosiy kompetensiyalari va hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan usullardan foydalanish.
	O'quvchilarning jamoaviy va loyihaviy ishlarini tashkil etish.
	O'quvchilarga metakognitiv strategiyani o'rgatishda turli yondashuvlardan, shu jumladan rejalashtirish, nazorat qilish va o'z-o'zini baholash ko'nikmalaridan foydalanish (kognitiv nosozliklarni inobatga olgan holda)
	O'quvchilarga individual ta'lim ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'z vaqtida differensial yordam berish
	Dars mavzusini amaliyot bilan (hayotdagi misollar yordamida) bog'lash
	Dars davomida har bir o'quvchiga o'z g'oyalari va qarashlarini ifoda etish imkoniyatini berish
	O'quvchilar darsda faol qatnashishini motivatsiyalashda ularning shaxsiy qiziqishlaridan foydalanish
	O'quvchilarni darsga qiziqitirishda turli usullardan foydalanish
	Sinfda samarali muloqotni ta'minlash

	O'quv dasturining mazmuni mos keladigan samarali usullarini tanlash, interfaol metodlarni qo'llash
	Interaktiv usullarni qo'llash
	Pedagogik va psixologik bilimlardan foydalanib, pedagogik vaziyat va hodisalarni kuzatib borish, ularni tahlil qilish

31) Ona tili fani o'qituvchisi AKT texnologiyalaridan foydalanishni yaxshi o'rgangan . Shu sababli darslarida hamisha internet manbalarida unumli foydalanadi.

Quyida o'qituvchi faoliyatida kasb standartining qaysi sohasi namoyon bo'lmoqda?

A) O'quv jarayonini rejalashtirish

B) Ta'lim samaradorligini oshirish

C) Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish

D) O'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish

32) Darsni rejalashtirish va tayyorlashda o'qituvchi qo'yilgan maqsadlarga va o'quv materialining mazmuniga muvofiq o'qitishning eng samarali usullari, vositalari va uslublarining birikmasini tanlaydi . Bu "O'quv jarayonini rejalashtirish" kompetensiya sohasining qaysi mehnat harakatiga kiradi?

A) Tegishli o'quv, namoyish va tarqatma materiallardan foydalanishni rejalashtirish

B) Dars jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari integratsiyasini rejalashtirish

C) O'quvchilar bilimni baholash natijasini inobatga olgan holda , darsning aniq va o'lchamli maqsad va vazifalarini aniqlab dars rejasini ishlab chiqish

D) Darsning maqsadlari , o'quvchilarning yosh xususiyatlari va o'zlashtirishiga mos keladigan dars

shakllari va usullarini rejalashtirish

1.2.2-KO'RSATKICH. DARSNING MAQSADLARI, O'QUVCHILARNING YOSH XUSUSIYATLARI VA O'ZLASHTIRISHIGA MOS KELADIGAN DARS SHAKLLARI VA USULLARINI REJALASHTIRADI

Darsni rejalashtirish va tayyorlashda o'qituvchi qo'yilgan maqsadlarga va o'quv materialning mazmuniga muvofiq o'qitishning eng samarali usullari, vositalari va uslublarining birikmasini tanlaydi. O'qituvchi ishlashning qanday shakl va usullari unga dars maqsadlarini eng samarali erishiga imkon berishini hal etadi va ularni o'z rejalariga kiritadi.

O'qitish usullarini tanlash o'quvchilar yoshiga, o'qitish mazmuniga, o'qituvchi malakasi va tajribasiga, darsga ajratilgan vaqtga, ammo avvalo dars maqsadlariga, tashkil etilishiga, o'qituvchi foydalanishga mo'ljallangan resurslarga bog'liq. O'quvchi uchun bilish ahamiyatidan tashqari katta motivatsion ahamiyatga ega o'quvchini faollashtirish usullaridan mumkin qadar ko'proq foydalanishni tavsiya etamiz.

Faollashtiruvchi usullar – bu o'qituvchi va (ko'pincha) o'quvchilar guruhlar tomonidan o'qitishni faollashtiruvchi ta'sir ko'rsatish vositalari, ya'ni harakat va tajriba orqali o'qitish. Faollashtiruvchi usullar bilan ishlaganida o'qituvchi o'quv vaziyatlarni tashkil qiluvchi, yo'riqnomalar beruvchi, yo'naltiruvchi va xulosalar chiqarishga yordam beruvchi instruktor sifatida harakat qiladi. O'quvchilar mustaqil ravishda harakat qiladi, o'z harakatlari natijalarini kuzatadi, xulosa va umumiy lashuvlar qiladi. Nazariya va bilimlar – bu pedagog gapirgan qandaydir noaniq narsa emas, balki ularning mustaqil harakatlari natijasidir.

Darsni rejalashtirish uchun mazkur usuldan foydalanib qanday maqsadlarga erishish mumkinligini bilish muhim. Bilimlarni uzatish uchun matn, mozaika, taqdimot kabi faollashtiruvchi usullar qo'l keladi. Malaka va qadriyatlarini shakllantirish uchun saxnacha, simulyatsiya, "stop-kadr", yechimlar daraxti, metaplan kabi usullarni qo'llash mumkin.

1.2.3-KO'RSATKICH. TEGISHLI O'QUV, NAMOYISH VA TARQATMA MATERIALLARDAN FOYDALANISHNI REJALASHTIRADI

Materiallardan foydalanishni rejalashtirishda birinchi navbatda aniq darsning maqsadi va vazifalarini nazarda tutish lozim. Darsda o'rganilayotgan hodisaning eng muhim elementlarini yaqqol namoyon etuvchi ko'rgazmali qo'llanmalarni tanlash kerak. O'quv, namoyish va tarqatma materialdan foydalanishning samaradorligi quyidagi qator talablarga bog'liq:

1) qo'llanilayotgan materiallar o'quvchilarning yoshi, ularning mavhum fikrlashi rivojlanganlik darajasiga mos bo'lishi zarur. Ma'lumotni turli vositalar bilan namoyish etuvchi materiallarni tanlash kerak. Aralash mediani (matn, video, tasvirlar, real dunyodan misollar, grafiklar va hokazo) tanlash axborotni yanada qiziqarliroq qiladi va o'quvchilarni o'qitishining turli uslublarini inobatga oladi;

33) O‘qituvchi maxsus ta’lim ehtiyojlariga ,qobiliyati yuqori darajali o‘quvchilar,jismoniy imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun farqli o‘qitish yondashuvlaridan foydalanishi va baholashi "O‘quv jarayonini rejalashtirish" kompetensiya sohasining qaysi mehnat harakatiga kiradi?

A) O‘z faoliyatini fanlararo kompetensiyalar predmetining korrelyatsiya va integratsiya tamoyillarini inobatga olgan holda rejalashtirish

B) O‘quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib o‘quv dasturini moslashtirish

C) Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarining maqsadlariga muvofiq o‘quv rejalarini ishlab chiqish

D) Darsning maqsadlari o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va o‘zlashtirishiga mos keladigan dars shakllari va usullarini rejalashtirish

Har bir reja real, amalga oshiriladigan bo'lishi kerak. Shuningdek, ishchi rejaning mazmuni nafaqat muallif uchun, balki barcha potensial foydalanuvchilar uchun ravshan va o'qiladigan bo'lishi muhim. Shuning uchun reja oddiy, tushunarli tilda bayon etilishi zarur. Ish rejasi amaliy va kundalik faoliyatda foydalanadigan bo'lishi uchun u xohlagan paytda maktab vaziyatga mos kerakli o'zgartish va zarur korrektirovkalar kiritish uchun egiluvchan bo'lishi kerak.

1.1.2-KO'RSATKICH. O'QUVCHILARNING EHTIYOJLARI VA QIZIQISHLARIDAN KELIB CHIQIB O'QUV DASTURINI MOSLASHTIRADI (AGAR KERAK BO'LSA)

Yilning boshida shakllangan va mavzuiy rejaga kiritilgan o'qitishning maqsad va natijalari har doim ham erishiladigan bo'lmaydi. Bu aniq sinf o'quvchilarining imkoniyatlari va ehtiyojlariga bog'liq. O'quvchilar o'zlashtirishini yilning boshida o'tkazilgan diagnostikasi natijalarining tahlili quyidagini ko'rsatish mumkin: o'quvchilarni yilning oxirida talab qilinadigan natijalarga olib chiqish uchun boshqa oraliq maqsadlar, boshqa ish sur'ati, boshqa usullar yoki qo'shimcha o'qitish materiallarni qo'llash zarur bo'lishi mumkin. Bularning barchasi pedagogning ish rejasiga o'zgartishlar kiritilishini talab qiladi.

O'z ishini realistik tarzda rejalashtirish uchun o'qituvchi kim va nimalarga qodir va bilishini aniqlashi kerak. Bu unga o'quvchilar e'tiborini nimalarga qaratishni, qaysi masalalar ko'proq vaqt olishini, qaysi masalalarga qisqagina to'xtalishni aniqlashga hamda har bir o'quvchiga individual tarzda yondashishga yordam beradi.

O'qituvchi rejani moslashtirib, o'qituvchi barcha o'quvchilar, shu jumladan, maxsus ta'lim ehtiyojlarga ega o'quvchilar, qobiliyat yuqori darajali o'quvchilar, jismoniy imkoniyatlari cheklangan o'quvchilar, ehtiyojlarini aniq tushunadi. U farqli o'qitish yondashuvlardan foydalanishga va baholashga qodir.

O'quv rejani tahlil qilib, o'qituvchi kutilayotgan natijalarga mo'ljalladi. O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini joriy diagnostikasi inobatga olgan holda, u kutilayotgan natijalarga erishish uchun qancha vaqt zarurligi rejalashtiradi.

1.1.3-KO'RSATKICH. O'Z FAOLIYATINI FANLARARO KOMPETENSIYALAR PREDMETINING KORRELYATSIYA VA INTEGRATSIYA TAMOYILLARINI INOBATGA OLGAN HOLDA REJALASHTIRADI

Ta'lim fanlari mazmunining integratsiyasi yangi o'quv dasturini amalga oshirishning belgilovchi jihatlaridan biri bo'lib, shunga mos ravishda pedagoglarning turli xil rejalarida aks ettirilishi kerak.

Ta'limdagi fanlararo integratsiya – bu doirasida turli fanlarning mazmuni va ularning uyg'unligi o'rtasida o'quvchilar bilimlarining yaxlitligini ta'minlash uchun aloqa o'rnatiladigan o'qitishga yondashuv. Ushbu yondashuvning maqsadi va mohiyati o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishga imkon beradigan turli fanlar nuqtai nazaridan ta'lim muammosini yoritib berishdan iborat.

34) O‘qituvchi global isish bo‘yicha munozarani rejalashtirayotganda geografiya , fizika , biologiya va fuqarolik ta’limi bo‘yicha bilimlarni birlashtirdi . Ushbu o‘rinda o‘qituvchi " O‘quv jarayonini rejalashtirish" kompetensiya sohasining qaysi mehnat harakatini amalga oshirdi ?

A) O‘qituvchi faoliyatini davlat standartlari va o‘quv dasturi doirasida rejalashtirdi

B) O‘quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib o‘quv dasturini moslashtirish

C) O‘z faoliyatini fanlararo korrektyatsiya va integratsiya tamoyillarini inobatga olgan holda rejalashtirish

D) O‘qituvchi o‘quv dasturiga muvofiq o‘quv - uslubiy chiqadi majmuasini ishlab

@oliymaqsad2 Anora Mahkamova guruhi uchun Test tuzuvchi: Babasheva Dilnoza Dekanbayevna

O'quv rejani tahlil qilib, o'qituvchi kutilayotgan natijalarga mo'ljalladi. O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini joriy diagnostikasi inobatga olgan holda, u kutilayotgan natijalarga erishish uchun qancha vaqt zarurligi rejalashtiradi.

1.1.3-KO'RSATKICH. O'Z FAOLIYATINI FANLARARO KOMPETENSIYALAR PREDMETNING KORRELYATSIYA VA INTEGRATSIYA TAMOYILLARINI INOBATGA OLGAN HOLDA REJALASHTIRADI

Ta'lim fanlari mazmunining integratsiyasi yangi o'quv dasturini amalga oshirishning belgilovchi jihatlardan biri bo'lib, shunga mos ravishda pedagoglarning turli xil rejalarida aks ettirilishi kerak.

Ta'limdagi fanlararo integratsiya – bu doirasida turli fanlarning mazmuni va ularning o'zaro bog'lanishini o'rtasidagi o'quvchilar bilimlarining yaxlitligini ta'minlash uchun aloqa o'rnatiladigan o'qitishga yondashuv. Ushbu yondashuvning maqsadi va mohiyati o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishga imkon beradigan turli fanlar nuqtai nazaridan ta'lim muammosini yoritib berishdan iborat.

O'QITUVCHI VA USLUBIYATLILAR
UCHUN QO'LLANMA

23

Fanlararo kompetensiyalarga kommunikativ, ijtimoiy, fuqarolik, raqamli, madaniy, ilmiy, o'rganish qobiliyati kabi kompetensiyalarni kiritish mumkin. Bu kompetensiyalarni faqat bitta fan doirasida rivojlantirish qiyin, shu sabab fanlararo integratsiya yondashuvi ularni shakllantirishning eng yaxshi usuli hisoblanadi.

Integratsiya muammo yoki o'rganish mazmuni atrofida sodir bo'ladi. Fanlararo integratsiya muayyan didaktik faoliyat jarayonida bir vaqtning o'zida turli fanlar nuqtai nazaridan voqelikning turli elementlarini tavsiflashga, dunyoning yaxlit ko'rinishini taqdim etish uchun predmetlar va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik, farqlar, munosabatlar va bog'liqliklarni ko'rsatish imkonini beradi. Bu yondashuvni qo'llash o'quv jarayonini takomillashtirishga, murakkab materialni o'zlashtirishga ko'maklashadi, tafakkurni rivojlantiradi, olingan bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llashni o'rgatadi, fan va fanlararo kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradi.

Bu yondashuvni ta'lim faoliyatida amalga oshirish uchun pedagog uni rejalashtirishi va mavzu rejaları hamda dars ishlanmalariga kiritishi kerak. Buning uchun o'qituvchi o'z fanidan qanday bilimlar o'quvchilar bilan muhokama qiladigan mavzularni/ muammolarni tushunishga yordam berishini o'ylab ko'rishi kerak.

Boshlang'ich ta'limda integratsiyani ba'zi tabiat hodisalarini o'rganish kerak bo'lganda rejalashtirish mumkin. Masalan, suv, iqlim, ob-havoga bag'ishlangan mavzularni muhokama qilishda biologiya va matematika sohalaridan bilimlarni integratsiya qilish mumkin. Masalan, suv tomchilarini yoki bir yilda necha kun yomg'ir yog'ishini hisoblash vazifasini bering. Siz «Tasviriy sa'nat» fani bilan integratsiyani rejalashtirish mumkin - yomg'ir yog'ayotganda bir tomchi suv, landshaftni rasm solish vazifasini bering. Shunda pedagog suv haqidagi bilimlarni bo'lmaydi va bu mavzuning faqat bir

35) O'qituvchi darsning boshida aniq va tushunarli tarzda dars maqsadini bayon qiladi. Eng muhimi nimaligini , baholashda nimaga e'tibor berishini tushuntiradi . Bunda o'qituvchi " Ta'lim samaradorligini ta'minlash" kompetensiya sohasiga oid qaysi mehnat harakatini amalga oshiradi?

A) Dars maqsadlari asosida o'quvchilar uchun erishimli vazifalarni belgilaydi

B) Ta'lim jarayonini qo'llab quvvatlash va ta'limiy muammolarni hal qilishda AKT dan foydalanish

C) O'quvchilar bilimini baholash natijasida olingan ma'lumotlar asosida darsni tashkil etish va ta'lim berishdagi yondashuvlarning samaradorligini tahlil qilish

D) O'quvchilarning jamoaviy va loyihaviy ishlarini tashkil etish

2.1-STANDART. O'QITUVCHI O'QUV JARAYONINI SAMARALI TASHKIL QILADI

Pedagog o'quv jarayonini darsning aniq maqsadlari va kutilayotgan natijalaridan, darsda taxmin qilayotgan faoliyat turidan va o'qituvchining bolalar bilan o'qitish o'zaro harakatdan kelib chiqqan holda tashkil qiladi.

Mazkur standartni bajarish pedagogning bilim va malakalarini tuzumlashtirishni va darsni tashkil qilishda uni samaradorligini oshirishga qo'maklashuvchi barcha muhim jihatlarni inobatga olib tashkil etishni nazar tutadi.

2.1.1-KO'RSATKICH. DARS MAQSADLARI ASOSIDA O'QUVCHILAR UCHUN ERISHIMLI VAZIFALARNI BELGILAYDI

Darsning boshida o'qituvchi aniq va tushunarli tarzda dars maqsadini bayon qiladi, shunda o'quvchilarga bu va o'rganilayotgan mavzuning mazkur bob yoki fandagi o'rni tushunarli bo'lishi zarur. O'qituvchi eng muhimi nimaligini, baholashda nimaga e'tibor berishini tushuntiradi. O'qituvchi o'quvchilardan ular nima o'rganishini va darsni oxirida nimaga erishishlarini tushungaligini so'raydi. Bular o'quvchilar e'tiborini jamlashga va shu bilan bir vaqtda ularni taklif qilingan faollik doirasida faol ishtirok qilishga motivlashtiradi.

Qo'yilgan maqsadlardan kelib chiqib, o'qituvchi rejalashtirilgan vazifalarini o'quvchilarga yetkazadi, dars mobaynida o'quvchilar ishlar tartibini tushuntiradi. Masalan, o'qituvchi darsni boshida mini-ma'ruza, keyin individual ishlash, oxirida esa guruhli vazifalar va mini-test bo'lishini e'lon qiladi. O'quvchilar darsdagi harakatlar ketma-ketligini va ularni kutayotgan faollikni bilishadi. Bu ishchi muhitni yaratadi, o'quvchilar vazifalarni ketma-ket bajarishga moyil.

2.1.2-KO'RSATKICH. DARS MAVZUSIGA MOS KELADIGAN NAMOYISH VA TARQATMA MATERIALLARDAN FOYDALANADI

Ko'rgazmali didaktik materiallar majmuasi o'qitishning muhim vositalaridan hisoblanadi. Odatda ikki xil ko'rgazmali materiallar ishlatiladi: vazifani bajarishga tayyorlash uchun ko'rgazmali va tarqatma materiallar. Ko'rgazmali va tarqatma materiallar o'z maqsadi bo'yicha farqlanadi: ko'rgazmali materiallar o'qituvchiga harakatlar usullarini tushuntirish va namoyish etish uchun xizmat qiladi, tarqatma materiallar esa o'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil qilishga imkon beradi. Bu materiallardan foydalanishning maqsadi - darslarni qiziqarli qilish, ularni yengil o'zlashtirish va o'qituvchiga konsepsiyalarni oson bayon etishga imkon berish.

Ko'rgazmali material darsning barcha elementlariga, shu jumladan, mashg'ulotning mavzuiga, o'qitishning maqsadiga, baholash va faoliyatga, mos bo'lishi kerak. Idealda o'quv va ko'rgazmali materiallar mahalliy o'ziga xoslikka va o'quvchilar ehtiyojlariga moslashtirilgan bo'lishi zarur.

Darsning samaradorligi yanada kattaroq bo'lishi uchun ko'rgazmali materiallardan foydalanishda quyidagi shartlar mavjud:

2.1-STANDART. O'QITUVCHI O'QUV JARAYONINI SAMARALI TASHKIL QILADI

Pedagog o'quv jarayonini darsning aniq maqsadlari va kutilayotgan natijalaridan, darsda taxmin qilayotgan faoliyat turidan va o'qituvchining bolalar bilan o'qitish o'zaro harakatdan kelib chiqqan holda tashkil qiladi.

Mazkur standartni bajarish pedagogning bilim va malakalarini tuzumlashtirishni va darsni tashkil qilishda uni samaradorligini oshirishga qo'maklashuvchi barcha muhim jihatlarni inobatga olib tashkil etishni nazar tutadi.

2.1.1-KO'RSATKICH. DARS MAQSADLARI ASOSIDA O'QUVCHILAR UCHUN ERISHIMLI VAZIFALARNI BELGILAYDI

Darsning boshida o'qituvchi aniq va tushunarli tarzda dars maqsadini bayon qiladi, shunda o'quvchilarga bu va o'rganilayotgan mavzuning mazkur bob yoki fandagi o'rni tushunarli bo'lishi zarur. O'qituvchi eng muhimi nimaligini, baholashda nimaga e'tibor berishini tushuntiradi. O'qituvchi o'quvchilardan ular nima o'rganishini va darsni oxirida nimaga erishishlarini tushungaligini so'raydi. Bular o'quvchilar e'tiborini jamlashga va shu bilan bir vaqtda ularni taklif qilingan faollik doirasida faol ishtirok qilishga motivlashtiradi.

Qo'yilgan maqsadlardan kelib chiqib, o'qituvchi rejalashtirilgan vazifalarini o'quvchilarga yetkazadi, dars mobaynida o'quvchilar ishlar tartibini tushuntiradi. Masalan, o'qituvchi darsni boshida mini-ma'ruza, keyin individual ishlash, oxirida esa guruhli vazifalar va mini-test bo'lishini e'lon qiladi. O'quvchilar darsdagi harakatlar ketma-ketligini va ularni kutayotgan faollikni bilishadi. Bu ishchi muhitni yaratadi, o'quvchilar vazifalarni ketma-ket bajarishga moyil.

2.1.2-KO'RSATKICH. DARS MAVZUSIGA MOS KELADIGAN NAMOYISH VA TARQATMA MATERIALLARDAN FOYDALANADI

Ko'rgazmali didaktik materiallar majmuasi o'qitishning muhim vositalaridan hisoblanadi. Odatda ikki xil ko'rgazmali materiallar ishlatiladi: vazifani bajarishga tayyorlash uchun ko'rgazmali va tarqatma materiallar. Ko'rgazmali va tarqatma materiallar o'z maqsadi bo'yicha farqlanadi: ko'rgazmali materiallar o'qituvchiga harakatlar usullarini tushuntirish va namoyish etish uchun xizmat qiladi, tarqatma materiallar esa o'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil qilishga imkon beradi. Bu materiallardan foydalanishning maqsadi – darslarni qiziqarli qilish, ularni yengil o'zlashtirish va o'qituvchiga konsepsiyalarni oson bayon etishga imkon berish.

Ko'rgazmali material darsning barcha elementlariga, shu jumladan, mashg'ulotning mavzuiga, o'qitishning maqsadiga, baholash va faoliyatga, mos bo'lishi kerak. Idealda o'quv va ko'rgazmali materiallar mahalliy o'ziga xoslikka va o'quvchilar ehtiyojlariga moslashtirilgan bo'lishi zarur.

Darsning samaradorligi yanada kattaroq bo'lishi uchun ko'rgazmali materiallardan foydalanishda quyidagi shartlar mavjud:

36) Geografiya o'qituvchisi Sanobar opa dars rejasida o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini, salohiyatini , mustaqilligini inobatga oldi. Dars rejasiga xattoki mayda qadamlarni ham kiritdi . Dars davomida bir daqiqa ham yo'qotmaslik uchun tayyor qo'shimcha materiallar tayyorlab oldi. Bunda o'qituvchi " Ta'lim samaradorligini oshirish" kompetensiya sohasiga oid qaysi mehnat harakatini amalga oshiradi?

A) Dars maqsadlari asosida erishimli vazifalar belgilandi

B) Ta'lim jarayonini qo'llab quvvatlash va ta'limiy muammolarni hal qilishda AKT dan foydalandi

C) Darsda vaqtdan oqilona foydalandi

D) O'quvchilar bilimini baholash natijasida olingan ma'lumotlar asosida darsni tashkil etish va ta'lim berishdagi yondashuvlarning samaradorligini tahlil

- ✚ Material shunday namoyish etilishi kerakki, uni barcha o'quvchilar yaxshi ko'rishi kerak. Ilyustratsiyalar ko'rsatilganida asosiy qismlar aniq ajratilishi lozim, namoyish paytida beriladigan izohlarni batafsil o'ylab ko'rish kerak. Ko'rgazmali material haddan tashqari katta bo'lmasligi kerak. Chunki uning kattaligi o'quvchilarni e'tiborini o'rganilayotgan material mohiyatidan chalg'itadi.
- ✚ Qo'llanmani namoyish qilish paytida gapirishni sekinlashtirish yoki to'xtatish maqsadga muvofiq, shunda tinglovchilar sxema, plakat yoki rasmni e'tiborni bilan ko'rib chiqishadi.
- ✚ Ko'rgazmali materiallar mazmuni o'quvchilar yoshining xususiyatlariga javob berishi kerak.

2.1.3-KO'RSATKICH. DARSDA VAQTDAN OQILONA FOYDALANADI

Dars vaqtidan oqilona foydalanish uchun o'qituvchi darsning egiluvchan, mantiqiy va maksimal darajada samarali rejasini tuzishi kerak. Rejada o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini, ularning salohiyatini, mustaqilligini inobatga olish muhim. Dars rejasiga barcha, hattoki mayda qadamlarni kiritish lozim. Rejadan foydalanish qulay bo'lishi uchun uni maksimal darajada batafsil qilinishi kerak.

Dars rejasi bajarilayotganda o'qituvchi o'quvchilarning ishlash sur'atini kuzatadi va sodir bo'layotgan jarayonga javob harakat qiladi. O'qituvchi o'quvchilar eplamayotgan vazifalarga qo'shimcha vaqt ajratadi va o'quvchilar vazifalarni tez bajarganda vaqtni boy bermaydi.

Bir daqiqa ham yo'qotmaslik uchun o'qituvchida tayyor qo'shimcha materiallar va vazifalar bo'lishi kerak. Shunda vaqt oqilona sarflanadi, dars esa doimo samarali bo'ladi.

qildi

- ✚ Material shunday namoyish etilishi kerakki, uni barcha o'quvchilar yaxshi ko'rishi kerak. Illyustratsiyalar ko'rsatilganida asosiy qismlar aniq ajratilishi lozim, namoyish paytida beriladigan izohlarni batafsil o'ylab ko'rish kerak. Ko'rgazmali material haddan tashqari katta bo'lmasligi kerak. Chunki uning kattaligi o'quvchilarni e'tiborini o'rganilayotgan material mohiyatidan chalg'itadi.
- ✚ Qo'llanmani namoyish qilish paytida gapirishni sekinlashtirish yoki to'xtatish maqsadga muvofiq, shunda tinglovchilar sxema, plakat yoki rasmni e'tiborni bilan ko'rib chiqishadi.
- ✚ Ko'rgazmali materiallar mazmuni o'quvchilar yoshining xususiyatlariga javob berishi kerak.

2.1.3-KO'RSATKICH. DARSDA VAQTDAN OQILONA FOYDALANADI

Dars vaqtdan oqilona foydalanish uchun o'qituvchi darsning egiluvchan, mantiqiy va maksimal darajada samarali rejasini tuzishi kerak. Rejada o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini, ularning salohiyatini, mustaqilligini inobatga olish muhim. Dars rejasiga barcha, hattoki mayda qadamlarni kiritish lozim. Rejadan foydalanish qulay bo'lishi uchun uni maksimal darajada batafsil qilinishi kerak.

Dars rejasi bajarilayotganda o'qituvchi o'quvchilarning ishlash sur'atini kuzatadi va sodir bo'layotgan jarayonga javob harakat qiladi. O'qituvchi o'quvchilar eplamayotgan vazifalarga qo'shimcha vaqt ajratadi va o'quvchilar vazifalarni tez bajarganda vaqtni boy bermaydi.

Bir daqiqa ham yo'qotmaslik uchun o'qituvchida tayyor qo'shimcha materiallar va vazifalar bo'lishi kerak. Shunda vaqt oqilona sarflanadi, dars esa doimo samarali bo'ladi.

2.1.4-KO'RSATKICH. TA'LIM JARAYONINI QO'LLAB-QUVVATLASH VA TA'LIMY MUAMMOLARNI HAL QILISHDA AKTDAN FOYDALANADI

Yangi texnologiyalarni samarali ishlatishni xohlovchi o'qituvchining o'zi ulardan foydalanishda yuqori kompetentlikka ega bo'lishi shart. O'qituvchilar shuni yodda tutishadiki, AKTDan foydalanadigan har bir mashg'ulot (uni mavzusidan qat'iy nazar) – bu o'quvchilarda raqamli kompetensiyani shakllantirish uchun imkoniyat.

AKTlarni darsda ishlatish usullar quyidagicha:

- ✚ axborot materiallarini multimedia (illyustratsiyalar, videokliplar, audiodiyozuvlar, taqdimotlar va hokazo) shaklida taqdim etish;
- ✚ obyektlar, hodisalar va jarayonlarni interfaol rejimida o'rganish (interfaol modellar, virtual laboratoriyalar, turli konstruktorlar);
- ✚ mustaqil ijodiy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish, loyihalash faoliyatini AKT yordamida tashkil etish, bular taqdimot qilish ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga imkon beradi;

37) Bu baholash turida biror bir davrda o'rganilgan material qanchalik o'zlashtirilganligi aniqlanadi . U kurs yoki dasturning samaradorligini baholashga , o'zlashtirishni tekshirishga mo'ljallangan

A) Summativ baholash

B) Diagnostik baholash

C) Formativ baholash

D) Umumiy baholash

3.1-STANDART. O'QITUVCHI ZAMONAVIY BAHOLASH NAZARIYALARI BILADI VA QO'LLAYDI

O'quvchilar o'quv yutuqlarini baholashning asosiy maqsadi rejalashtirilgan maqsadlarga muvofiq ta'limiy natijalarni erishish darajasini aniqlashdan iborat.

Pedagog baholashning funksiyalari, turlari, usullari va vositalari to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Pedagog biladiki, baholash – bu, birinchi navbatda, o'zlashtirilgan bilimlar va ko'nikmalar darajasi to'g'risidagi ma'lumot. U tushunadiki, baholash jarayonida raqamli (yoki balli) baho va uni izohlovchi axborot qo'yiladi. O'quvchini baholovchi pedagog aniq va tushunarli mezonlarga ega qabul qilingan baholash tizimidan foydalanadi.

Samarali baholash bo'yicha o'zining harakatlarini rejalashtirish uchun o'qituvchilar ham umuman baholash maqsadlarini, ham baholashning alohida har bir turi bo'yicha maqsadi, mazmuni va bajarish amallarini bilishi muhim. Bu parametrlari bo'yicha baholash uch turga ajratiladi – diagnostik, formativ va summativ (yakunlovchi) baholash.

Diagnostik baholash o'qitishdagi adaptiv o'zgartishlarga ko'maklashadi. Birlamchi diagnoz asosida o'qituvchi mazkur ta'lim siklda o'qishni boshlashdan ilgari o'quvchilarning bilimlari, ko'nikmalari va munosabatlarining boshlang'ich holatini aniqlaydi; birlamchi baholash natijalari asosida o'quvchi tegishli o'quv rejani tanlaydi va kerak bo'lsa uni o'quvchilarni ehtiyojlari va qobiliyatlariga qarab modifikatsiya qilishi mumkin.

Formativ baholash – bu sinfda kundalik ish jarayonida olib boriladigan baholash turi, ta'lim oluvchining o'zlashtirish joriy ko'rsatkichi hisoblanadi, o'qitish paytida ta'lim oluvchi va o'qituvchi o'rtasida tezkor o'zaro aloqani hamda o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida qayta aloqani ta'minlaydi, ta'lim jarayonini takomillatirishga imkon beradi.

Summativ baholash - uzoq muddatli o'qitish siklidan keyin keladi va bu bosqichni (semestr, o'quv yili) yakunlaydi. Summativ baholash o'quvchilarni baholash toifasiga kiradigan natijaga o'naltiriladi. Odatdabubaholashjarayoniningsemestryokibo'lim yakunlanganidan keyingi qismi. Uning maqsadi o'quv bilimlarini tekshirishdan, ya'ni bu davrda o'rganilgan materialni qanchalik o'zlashtirilganligidan iborat. Summativ baholash kurs yoki dasturning samaradorligini baholashga, o'zlashtirishni tekshirishga mo'ljallangan.

An'anaviy yondashuvda baholash – bu o'qituvchining ishlash vositasi. Zamonaviy yondashuv e'tibor nuqtasini o'zgartiradi va bu jarayonda o'quvchilar faol qatnashishini nazarda tutadi, bu esa ularga o'qishga yordam beradi.

38) O‘qituvchi test ishlab chiqishda ma’lum malakalar shakllanganligini tekshirishga imkon beruvchi vazifalar bergan . O‘quvchilar ma’lum malakani tekshiruvchi vazifani o‘quvchilar o‘zlashtira olmasa bu malakada keyin yana qanday ishlashni rejalashtirishi zarur.

Bunda o‘qituvchi kasb standartining qaysi kompetensiya sohasiga oid mehnat harakatini amalga oshiradi?

A) O‘zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish

B) O‘quv jarayonini rejalashtirish

C) Ta’lim samaradorligini oshirish

D) Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish

3.2.1-KO'RSATKICH. O'QUVCHILAR TOMONIDAN BILIMLARNI EGALLASH DARAJASINI (HAJMINI) MUNTAZAM / TIZIMLI RAVISHDA KUZATIB BORADI

O'quvchilarni baholash – bu uzluksiz jarayon. O'qituvchi bu bilan muntazam ravishda shug'ullanadi. Baholash har bir darsda, bobning oxirida, chorak yoki yilning oxirida o'tkaziladi, bunda baholash tasniflash funksiyani bajaradi.

Har bir darsning majburiy qismi – bu darsning har bir bosqichiga organik tarzda kiritilgan o'quvchilar bilimlari, malakalari va ko'nikmalarini egiluvchan joriy tekshirish. Har bir darsda o'tkaziladigan baholash darsda o'quvchilar erishgan natijalar darajasini aniqlashda qaratilgan. Baholash o'quvchilar o'zlashtirishini doimiy kuzatishga, kamchiliklarni tez tuzatishga imkon beradi. Bunday tarzdagi baholashda o'quvchilar albatta baho shaklida bo'lmagan qayta aloqani olishadi.

Umumlashtiruvchi baholash o'quvchining ma'lum davrini yakunlaydi. O'qituvchi materialning ma'lum qismlari o'zlashtirilganligini tekshirish vaqtini rejalashtiradi va o'quvchilarga e'lon qiladi.

3.2.2-KO'RSATKICH. O'QUVCHILAR ERISHGAN YUTUQLARNI NATIJALARINI TAHLIL QILADI

O'quvchilar o'quv yutuqlarini tahlil etish ular rivojlanishini rag'batlantirish va motivlashtirish maqsadida ularning bilim, ko'nikma va malakalarini joriy darajasini aniqlashdan iborat. O'quvchilar ishi natijalarini tahlil etib, o'qituvchi o'quvchilar duch kelgan qiyinchiliklar haqida ma'lumot oladi va bu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun qanday amallarni bajarish kerakligi to'g'risida xulosalar chiqaradi. O'qituvchi olingan ma'lumotlarni sinf va alohida har bir o'quvchi darajasida tahlil qilishni bilishi kerak.

Masalan, o'qituvchi test ishlab chiqishda ma'lum malakalar shakllanganligini tekshirishga imkon beruvchi vazifalar bergan. Agar bu vazifa sinfdagi o'quvchilar aksariyati tomonidan bajarilsa, demak bu malaka o'zlashtirildi. Agar ma'lum malakani tekshiruvchi vazifani o'quvchilar o'zlashtiraolmasa, bu masalada keyin qanday ishlashni rejalashtirish zarur.

O'quvchilar yutuqlarini muntazam tahlil qilish o'qituvchi va o'quvchilar uchun, o'quv dasturi talablaridan kelib chiqqan holda mo'ljall bo'lishi lozim. Har bir o'quvchi (hamda sinf) yutuqlarini kuzatib borib, o'qitish samaradorligi to'g'risida tasavvur olish mumkin.

Har bir o'quvchining ishlarini tahlil qilish quyidagi savollarga javob olishni nazarda tutadi:

- qanchalik bu natija o'quvchi uchun barqaror;
- mazkur mavzuni o'rganishga o'quvchining munosabatini o'zgartirish mumkinmi (o'quvchi motivatsiyasini qanday ko'tarish mumkin);
- qanday mashqlar (vazifalar) aniq o'quvchiga yuqoriroq natijalarni erishishga yordam beradi;
- o'quvchi intellekti individual turiga muvofiq vazifalarni rejalashtirish va tayyorlash.